

AGROTURIZM – BARQAROR RIVOJLANISH ASOSI

Baymuradova Iroda Shermamatovna. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘tgan asrda paydo bo‘lgan turizm shakllaridan – agroturizm, qishloq turizmi, ekoturizm bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab sayyohlik sanoatining tobora muhim tarmoqlariga aylanib bormoqda. Hayot tarzining yangi turlari, rivojlanayotgan turistik xatti-harakatlar va xaridorlarning doimiy ravishda o‘zgarib turadigan ehtiyojlari barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, shu turdagи turistik bozor turlarining kengayishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonдagi agroturizm va qishloq turizmining muhim tendentsiyalarini aniqlashdan iborat bo‘lib, mamlakatning potensial salohiyatini o‘rganadi. Shuningdek, agroturizm hamda qishloq turizmining farqli tomonlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Agroturizm, qishloq turizmi, ekoturizm, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston iqtisodiyoti va geografik potensiali.

Annotation. Among the forms of tourism that emerged in the last century - agritourism, rural tourism, ecotourism today are becoming increasingly important sectors of the tourism industry around the world. New lifestyles, evolving tourist behaviors, and the ever-changing needs of buyers are all linked to sustainable development issues, leading to the expansion of these types of tourism markets. The purpose of this article is to identify important trends in agritourism and rural tourism in Uzbekistan and to study the potential of the country. It also analyzes the different aspects of agritourism and rural tourism.

Keywords: Agritourism, rural tourism, ecotourism, sustainable development, economy and geographical potential of Uzbekistan.

1. KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbliji nafaqat shaharlar, shu bilan bir qatorda qishloq hududlariga ham oid muammolarni qamrab oladi. Bugungi kunda texnogen omillarning jamiyat va tabiat rivojlanishiga, tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, dunyoga ma'lum va mashhur turistik zonalar atrof-muhitining ifloslanishi sayyoohlarning u yerlarga oqimini kamaytirmoqda. Bu esa o'z navbatida turistlar xohishini qondiruvchi yangi joylar va turizmni rivojlantirishning yangicha mexanizmlarini izlashga sabab bo'lmoqda.

Ekologiyani muhofaza etish hamda barqaror rivojlanish sohasidagi islohotlar qishloq turizmiga qiziqishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda, urbanizatsiya, shovqinli muhit va zamonaviy hayot tarzining boshqa salbiy ta'sirlari shahar aholisida markaziy hududdan uzoqlarda, tabiat qo'ynida dam olish istagini uyg'otmoqda. Qishloq aholisi daromadlarini oshirish, turmush darajasini yuksaltirish bilan birga milliy madaniyat va atrof tabiiy muhitni saqlab qolish imkoniyatiga bugungi kunda agroturizm orqali erishish samara bermoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sodan "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, qishloq joylarda agroturizmni jadal rivojlantirish, turizm aylanmasiga fermer va dehqon xo'jaliklarini, qishloq joylardagi mahalliy aholini keng jalb qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Qishloq joylarda agroturizm sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda agroturizmni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha hududiy muvofiqlashtiruvchi Kengashlarning namunaviy tarkibi tasdiqlandi va bir qator vazifalar belgilandi.²

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola O'zbekistondagi qishloq turizmi va uning eng ommabop shakllari, agroturizm hamda ekoturizm haqida umumiyligi ma'lumot berishga, ularni rivojlantirish uchun mamlakat potensiali va geografik sharoitini tadqiq etishga qaratiladi.

2. ADABIYOTLARNING TAHLILI

Barqaror rivojlanish nafaqat tendensiya, balki hayotimizdagi barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda, shu jumladan turizmda kengayib boradigan zaruratdir, chunki bu

¹ I.Baymuradova- Agroturizmning rivojlanish istiqbollari - "O'zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi TDIU xalqaro ilmiy anjumani to'plami, 2020

² "Qishloq joylarda agroturizm sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasini qarori, 2019-yil 11-aprel muhokamasi yakunlangan.

"tabiiy va inson salohiyatiga, jamiyatning madaniy merosiga bog'liq bo'lgan resurslar sohasi" (Dorobanțu & Nistoreanu, 2012) [1].

Rus olimi A.Yu.Aleksandrova dunyodagi ko'p davlatlar qishloq turizmini ekologik turizmning muhim tarmog'i sifatida qarashini ta'kidlagan [2]. E. Klaus "qishloq turizmi"ni ikkita tasnifini keltiradi: a) qishloq turizmi bevosita fermer xo'jaliklari bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, odatda bu "Agroturizm" deb yuritilib, rivojlangan mamlaktalarda agroturizm qishloq turizmining tarixiy boshlang'ich nuqtasi ekanligini ta'kidlagan; b) Qishloq turizmi qishloq joylaridagi resurslar va aktivlardan samarali foydalanishga asoslangan faoliyat hisoblanib, asosan, bu joyda qishloqlardagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy resurslardan maksimal foydalanish nazarda tutiladi hamda qishloq aholisi an'analarini hurmat qilish lozimligini alohida ta'kidlagan [3].

Respublikamizning "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi"da qishloq turizmiga "qishloq xalqini turmushi, urf-odatlari, an'analari bilan yaqindan tanishish" deb ta'rif berilgan [4].

Shuningdek, O'zbekistonlik olimlardan R.Hayitboev qishloq turizmini rivojlantirishning asosiy vazifasi sifatida – qishloqlarda turizmni rivojlantirish orqali tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish asosida qishloq turizmi xizmatlari, turizm infratuzilmalarini faoliyatini tashkil qilishdan iboratdir deb hisoblaydi [5]. Mamlakatimizda, xususan, qishloq joylaridagi mavjud turistik resurslardan turizm faoliyatida keng foydalangan holda turizmni tashkil etish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, E.Tog'aymurodov tadqiqotlarida Samarqand viloyati hududlarida eko-agroturizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan [6].

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR

Agroturizm va qishloq turizmi sinonim so'zlar sifatida birga qo'llanilsa-da, lekin ularning o'rtasida sezilarli farq bor:

qishloq turizmi – asosan dam olish va boshqa turli maqsadlarda qishloq joylarida sayyohlikni amalga oshiruvchi shaxslarning turistik faoliyat turi bo'lsa;

agroturizm – dam olish va boshqa maqsadlar, ya'ni asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bevosita ishtirok etish, ishlab chiqarishga oid bilim va malakasini

oshirish, jismoniy mehnat qilish va shundan zavqlanish niyatida qishloq hududlariga sayohat qiluvchi turistlar faoliyati turi.³

Chet el agroturizmida sayyoh va fermer o‘rtasida o‘zaro kelishuv olib boriladi, ya’ni, turist bepul turar joy va oziq-ovqat evaziga kunning bir qismida qishloq xo‘jaligi ishlarida qatnashadi. Baliq ovlash, otda yurish, chorva mollarini boshqarish, hosil yig‘ish, meva-sabzavot terimlarida bevosita ishslash agroturizmga daxldor.

Qishloq turizmi esa asosan, qishloq uylarida, juda qadimda qurilib hozirgacha saqlanib qolgan pastqam hovlilarda yashab, biologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan, milliy taomlardan iste’mol qilish, milliy urf-odatlar bilan tanishish, milliy musiqalar tinglash va bayramlarida qatnashishni xohlovchi sayyoohlarni qamrab oladi. Demak, qishloq turizmi agroturizmga nisbatan umumiylashtirish tushuncha bo‘lib, agroturizm uning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda har ikkala turizm turlarining umumiy tomonlarini tahlil qilish asosida⁴ ular o‘rtasidagi farq va o‘xshash tomonlari belgilandi.

1-jadval

Agroturizm va qishloq turizmining asosiy xarakteristikalari

Farqlari		
Qishloq turizmi		
Faoliyat turi	Qishloq hududiga qarashli turizm turi	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq turizm
Faoliyat subyekti	Qishloqlardagi kichik oila yoki uy xo‘jaliklari	Fermer yoki dehqon xo‘jaliklari
Faoliyat sohasi	Tabiiy hududlar, mahalliy amaliyotlar, madaniyat va gastronomiyadagi muhim voqealar	Qishloq xo‘jaligi turmush tarzini yoritib berish va tushuntirishga qaratilgan ma’rifiy tadbirlar
Qamrov sohasi	Agroturizm, Ekoturizm, Etnoturizm Gastronomik turizm, Geoturizm va boshqalar	Dehqonchilik turizmi, Chorvachilik turizmi, Milliy an’anaviy sport turizmi, Gastronomik turizm, Etnoturizm...
Tashkiliy asosi	Ommaviy turizmnning bir shakli	Qishloq turizmining bir shakli
Iste’molchilar	Tabiatni va dam olishni sevuvchilar	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, hunarmandchilik, tabiiy mahsulotlar va gastronomiyaga qiziquvchilar
O‘xshashliklari		
Faoliyat obyekti	Qishloqlar	qishloqlar
Maqsadi	Aholi daromadlarini oshirish	Qishloq xo‘jaligida daromadni

³ Гварлиани Т.Е., Бородин А.Н. - Сельский и аграрный туризм как специфические виды туризма — Terra economicus, 2011, <https://cyberleninka.ru/article/n/selskiy-i-agrarnyy-turizm-kak-spetsificheskie-vidy-turizma/viewer>

⁴ M.R.DOROBANTU, D.MARICICA - The relationship between agro tourism and rural tourism among with the sustainable development concept – conference paper, January 2012.

		oshirish
Umumiy soha	Ekoturizm, gastronomik turizm	Ekosayohat, gastronomiya
Ishtirok sohasi	Milliy urf-odatlar, an'analarda bevosita ishtirok etish	Milliy madaniyat bilan tanishish
Iste'molchilar talabi	Tinch va sokin tabiat qo'ynida, tabiiy mahsulotlardan iste'mol qilgan holda dam olishni xohlaydi	Shovqinli shahardan uzoqda qishloq xo'jaligi mehnatini qilish zavqi bilan dam olishni ko'zlaydi

*Manba: Turli manbalar asosida muallif ishlanmasi**

Fransiyada, Buyuk Britaniyada, Germaniyada, Italiyada qishloq turizmi, Avstriya, Ruminiya, Avstraliyada agroturizm, AQSH, Kanada va Afrika davlatlarida ekoturizm deyiladi. Qishloq turizmining mohiyatini ko'plab davatlarda har xil tushunishadi, chunki bu atamalar hozirgacha bir sistematikaga tushirilgan emas.

Qishloq turizmi rivojlana borgani sari albatta uning sohalari yoki yo'nalishlari (agroturizm) alohida tarmoqlarga ajralib ketadi. Chunki, qishloq turizmi turizmdagi ko'plab turlarni o'zida qamrab olgan. Masalan, ekoturizmning asosiy resurslari qishloqlarda joylashgan, lekin biz unga sayohatni ekoturizm deb ataymiz, dehqonchilikka qiziqishni esa agroturizm deymiz.

Qishloq turizmining turlari bir-biridan farqlanishidan qat'iy nazar, oxir-oqibat yagona maqsad – qishloq hududlarini barqaror rivojlanirish sari boshlaydi. Ushbu konsepsiya oxirgi nuqtada turizmning barcha jabhalarini birlashtiradi.

Barqaror rivojlanishni barqaror o'sish deb tushunish noto'g'ri. Qishloqlarning barqaror rivojlanishi deganda qishloq ahonisining hamda ular yashab turgan hududlarning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan farovonligi, yaxshilanishi nazarda tutiladi. Lekin barqaror o'sish har doim ham qishloq ahonisining yashash tarzi yaxshilanishining yuqori darajada bo'lishini ta'minlamaydi. Shuning uchun agroturizmni tashkil etish barqaror rivojlanishning muhim masalasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonning deyarli barcha mintaqalarida qishloq turizmi uchun katta imkoniyatlar mavjud, chunki u asosan qishloq xo'jaligi mamlakatidir. Qishloq turizmi, dam olishning yangi turi sifatida, O'zbekistonning turistik segmentida ham kiruvchi, ham chiquvchi turistik oqimlardan foydalangan holda katta rol o'ynashi mumkin. Qulay ekologik va iqlim sharoiti, ijtimoiy infratuzilma, an'anaviy mehmondo'stlik asoslangan etnografik madaniyat - bularning barchasi mamlakatimizda mavjud va agroturizm uchun muhim omillardir.

Mamlakatimizda qishloq sayyoqligi Jizzax va Navoiy viloyatlarida, Nurota tizmasining shimoliy yon bag'irlarida yaxshi rivojlangan. Mehmon uyлari Esli Forish, Uxum, Hayot, Majrum, kabi qishloqlarda tashkil etilgan. Ushbu uylarning

mehmonlari tog‘ uchastkalarida maftunkor sayr qilishadi, Nurota biologik qo‘riqxonasining o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishadilar.

Agar agroturizmni tashkil qilish mumkin bo‘lgan qishloqlar Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab an'anaviy sayyohlik marshrutlariga yaqin joyda joylashgan bo‘lsa, unda bu ayni muddao bo‘ladi. Zamonaviy O‘zbekiston hududi orqali ushbu yo‘lning ko‘plab yo‘nalishlari mavjud bo‘lishiga qaramay, yangi yo‘nalishni har tomonlama amalga oshirish uchun unga hamroh bo‘ladigan infratuzilmani rivojlantirish zarur. Uzumzorlarga va ularni qayta ishlash uchun ishlab chiqarishga boy bo‘lgan Samarqand va Toshkent viloyatlarida maxsus vino tatib ko‘rish turistik xizmatlarni taklif qilish mumkin. Samarqandda vino turizmini rivojlantirish ishlari allaqachon boshlangan.⁵

Agroturizm obyektlarini barpo etish uchun mamlakatimiz potensiali juda yuqori darajada. Ayniqsa, turistlar tashrifi Navro‘z ayyomiga to‘g‘ri kelib qolsa, Surxondaryoning Boysun tog‘larida ko‘pkarilar, sumalak tayyorlash jarayonlari, milliy taomlar tortilishi, laparlar va folklor, turli milliy xalq o‘yinlari – “chillak”, “oq terakmi, ko‘k terak”, “varrak uchirish”, arqon tortish va shu kabi urf-odatlarimiz sayyoohlarni ham o‘ziga jalb etadi. Buning uchun albatta, faqatgina xorijiy sayyoohlarni emas, balki ichki turistlar oqimini ham oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Respublikamizda qishloq turizmini rivojlantirish zarurligining eng asosiy, dolzarb bir masalasi — shahar aholisining qishloqlarda dam olishini tashkil qilish deb qarashimiz lozim. Qayd qilganimizdek, dunyoda qishloq turizmini rivojlantirish orqali ichki turizmni, so‘ngra xalqaro turizmni rivojlantirigan va jahon turizmida “lider” o‘rinlarni egallab kelayotgan AQSH, Kanada, Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya, Avstraliya va Ispaniya davlatlari jahon turizmidagi hozirgi mavqelariga dastlab qishloq turizmini rivojlantirish orqali erishdilar.⁶

Agroturizm O‘zbekistonning ichki turizm sohasida ham, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida ham yuqori salohiyatga ega. Bu asosda yangi ish o‘rinlari yaratiladi, qishloq infrastrukturasi yaxshilanadi, mahalliy aholi madaniyati va ta’lim darajasi takomillashadi, hatto tadbirkorlik qiluvchi fermerlar, dehqonlarning o‘z faoliyatlarini yanada kengaytirib, daromadlarini oshirishlariga yo‘l ochib beriladi. Ammo bu yo‘lda sohaning mamlakatimizda ko‘rib chiqilmagan ba’zi kamchiliklari – infrastrukturada mavjud nuqsonlar (yo‘l ta’mirlash ishlaridagi nosozliklar), qonuniy bazasining mavjud emasligi, turistik brendlarning yo‘qligi, axborotlar bilan

⁵ uzbektourism.uz

⁶ R.Xaitboyev – Ekologik turizm, o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2018.

ta'minlanmaganlik (agroturistik xarita mavjud emasligi) kabilarni bartaraf etgan holda harakat qilish har tomonlama muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.R.Dorobantu, D.Maricica - The relationship between agro tourism and rural tourism among with the sustainable development concept – conference paper, January 2012.
2. Aleksandrova A.Yu., Geografiya turizma, M.: Kno Rus, 2010, 590 s.
3. E.Klaus. Sel'skiy turizm v Yevrope – klyuchevie voprosi uspexa. Materiali kongressa – soveshaniya pervogo mejdunarodnogo foruma «Sel'skiy turizm v Rossii» M.: FGNU «Rosinformagrotex» 2012.
4. “O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiysi”. Ekologiya axborotnomasi. №6, 2007.
5. Hayitboev R.,Ekoturizm.O‘quv qo‘llanma.SamISI, Samarqand, 2016.
6. E.Tog‘aymurodov. Qishloq hududlarida eko-agroturizmning barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar. Moliya va bank ishi ilmiy elektron jurnal. №3. 2016.
7. I.Baymuradova- Agroturizmning rivojlanish istiqbollari - "O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi TDIU xalqaro ilmiy anjumani to‘plami, 2020
8. Абдуллаев, З.Х. (2021). Илмий ва инновацион фаолият самарадорлиги ва олий таълим муассасалар рейтинги. *DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 1002-1007.
9. “Qishloq joylarda agroturizm sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2019-yil 11-aprelda muhokamasi yakunlangan.
- 10.Gvarlian T.YE., Borodin A.N. - Selskiy i agrarno‘y turizm kak spesificheskiye vido‘ turizma — Terra economicus, 2011,
- 11.M.R.Dorobantu, D.Maricica - The relationship between agro tourism and rural tourism among with the sustainable development concept – conference paper, January 2012. uzbektourism.uz